

KLASTERLARDA DAROMADLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

Shirov Javlonbek Akbarovich

Tadqiqotchi

Javlonbekshero9@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21484115>

Annotatsiya: maqolada paxta-to'qimachilik klasterlarida daromadlar hisobini MHXS (IFRS) talablari asosida takomillashtirish, daromadlarni tasniflash, tan olish, analitik hisobni rivojlantirish hamda boshqaruv qarorlarini axborot bilan ta'minlash masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: klister, paxta-to'qimachilik klasteri, daromadlar hisobi, daromadlarni tan olish, mhxs, analitik hisob, moliyaviy hisobot, qiymat yaratish zanjiri, boshqaruv hisobi, segmentlar bo'yicha hisob.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы совершенствования учета выручки в хлопчатобумажно-текстильных кластерах на основе требований МСФО, классификации выручки, признания выручки, развития аналитического учета и предоставления информации для принятия управленческих решений.

Ключевые слова: кластер, хлопчатобумажный кластер, учет выручки, признание выручки, МСФО, аналитический учет, финансовая отчетность, цепочка создания стоимости, управленческий учет, сегментный учет.

Abstract: the article discusses the issues of improving revenue accounting in cotton-textile clusters based on IFRS requirements, revenue classification, recognition, development of analytical accounting, and information provision for management decisions.

Keywords: cluster, cotton-textile cluster, revenue accounting, revenue recognition, IFRS, analytical accounting, financial reporting, value chain, management accounting, segment accounting.

Paxta-to'qimachilik klasterlari mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biri hisoblanib, xomashyoni chuqur qayta ishlash, yuqori qo'shilgan qiymat yaratish, eksport salohiyatini oshirish va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Klaster tizimida paxta yetishtirishdan boshlab tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va realizatsiya qilishgacha bo'lgan barcha bosqichlar yagona boshqaruv mexanizmi asosida amalga oshiriladi. Bunday murakkab ishlab chiqarish zanjiri daromadlarni e'tirof etish, ularni faoliyat yo'nalishlari va mahsulot bosqichlari kesimida hisobga olish hamda moliyaviy natijalarni ishonchli aniqlashni talab etadi. Shu bois klasterlarda daromadlar hisobini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, xususan IFRS 15 talablariga mos ravishda tashkil etish, ichki xo'jalik operatsiyalarini to'g'ri aks ettirish va boshqaruv qarorlarini sifatli axborot bilan ta'minlash dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda klasterlar faoliyatida ishlab chiqarish va realizatsiya jarayonlarining diversifikatsiyalashuvi, ichki transfert operatsiyalarining kengayishi, mahsulotlarning turli qayta ishlash bosqichlarida qiymat shakllanishining murakkablashuvi daromadlar hisobini takomillashtirish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Amaldagi hisob amaliyotida daromadlarni segmentlar, mahsulot turlari va qiymat yaratish zanjiri bo'yicha aks ettirishning yetarli darajada metodik asoslanmaganligi boshqaruv qarorlarining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, klasterlarda daromadlarni e'tirof etish, o'lchash, hujjatlashtirish va moliyaviy hisobotlarda aks ettirishning takomillashtirilgan

uslubiyotini ishlab chiqish, ichki va tashqi foydalanuvchilar uchun ishonchli hisob axborotini shakllantirish hamda klasterlarning moliyaviy barqarorligi va investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqish mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Klasterlarda daromadlar hisobini tashkil etish va takomillashtirish masalalari xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, boshqaruv hisobi hamda qiymat zanjiri konsepsiyasi doirasida keng tadqiq etilgan. Ayniqsa, daromadlarni e'tirof etish, baholash va moliyaviy hisobotlarda aks ettirish tamoyillari bo'yicha xalqaro ilmiy manbalar muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

MHXS Jamg'armasi tomonidan qabul qilingan 15-son MHXS "Mijozlar bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha daromadlar" standartida daromadlarni tan olishning besh bosqichli modeli ishlab chiqilgan bo'lib, unda shartnomani aniqlash, bajarish majburiyatlarini belgilash, operatsiya narxini aniqlash, narxni majburiyatlar o'rtasida taqsimlash va daromadni bajarilgan majburiyat asosida e'tirof etish tartibi batafsil yoritilgan. Mazkur yondashuv klasterlarda mahsulotni qayta ishlashning turli bosqichlarida daromadlarni to'g'ri hisobga olish uchun muhim nazariy asos hisoblanadi [1].

Kieso, Weygandt va Warfield o'zlarining *"Buxgalteriya hisobining chuqurlashtirilgan kursi"* asarida daromadlarni e'tirof etish tamoyillari, realizatsiya jarayonlari va moliyaviy hisobotlarda daromadlarni aks ettirish usullarini keng tahlil qilgan. Mualliflar daromadning iqtisodiy mazmuni uning huquqiy shaklidan ustun turishini asoslab, shartnomaviy majburiyatlarning bajarilishi daromadni tan olishning asosiy mezonini ekanligini ta'kidlaydilar. Ushbu yondashuv klasterlarda ichki va tashqi realizatsiya operatsiyalarini hisobga olish metodologiyasini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi [2].

Kaplan va Atkinson boshqaruv hisobi konsepsiyasini rivojlantirib, daromadlarni javobgarlik markazlari, biznes segmentlari va qiymat yaratish zanjiri bo'yicha hisobga olish zarurligini asoslab berganlar. Ularning fikricha, korxona faoliyatini samarali boshqarish uchun daromadlar faqat umumiy moliyaviy natijalar emas, balki alohida bo'linmalar va ishlab chiqarish bosqichlari kesimida ham tahlil qilinishi lozim. Ushbu yondashuv paxta-to'qimachilik klasterlarida segmentlar bo'yicha daromadlar hisobini takomillashtirish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi [3].

Porter qiymat yaratish zanjiri (Value Chain) nazariyasida korxonaning har bir ishlab chiqarish bosqichida qiymat shakllanishi va daromad hosil bo'lish jarayonini izohlaydi. Muallifning ta'kidlashicha, korxonaning raqobat ustunligi har bir bosqichda yaratilayotgan qo'shilgan qiymatni samarali boshqarishga bog'liq. Ushbu nazariya klasterlarda paxta yetishtirish, ip yigirish, mato ishlab chiqarish va tayyor mahsulot realizatsiyasidan olinadigan daromadlarni bosqichma-bosqich hisobga olish metodikasini ishlab chiqishda muhim nazariy manba hisoblanadi [4].

Drury boshqaruv va xarajatlar hisobi bo'yicha ilmiy tadqiqotlarida daromadlarni mahsulot turlari, bozor segmentlari va javobgarlik markazlari kesimida hisobga olishning afzalliklarini asoslagan. Muallifning fikricha, segmentlar bo'yicha daromadlar hisobini yuritish menejment qarorlarini qabul qilish sifatini oshiradi, rentabellikni baholash imkoniyatlarini kengaytiradi va resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi. Mazkur yondashuv klasterlarda integratsiyalashgan daromadlar hisobini tashkil etishda dolzarb metodologik ahamiyatga ega [5].

Paxta-to'qimachilik klasterlarida daromadlar bir nechta manbalardan shakllanadi. Ularni tan olishda MHXS (IFRS) 15 "Mijozlar bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha daromadlar" standartining besh bosqichli modeli qo'llaniladi. Daromad mijozga mahsulot yoki xizmat ustidan nazorat o'tgan vaqtda tan olinadi, naqd pul olingan vaqtda emas.

1-jadval

Klasterlarda uchraydigan daromad turlari va ularning tan olinishi

№	Daromad turi	Daromad manbai	Tan olish mezonlari (IFRS 15)
1	Xom paxta sotishdan daromad	Fermer yoki klaster tomonidan paxta realizatsiyasi	Xaridor paxta ustidan nazoratni qabul qilgan va mulk huquqi o'tgan paytda tan olinadi.
2	Paxta tolasi sotishdan daromad	Jinlash korxonasi	Tola xaridorga topshirilib, nazorat o'tganda tan olinadi.
3	Chigit sotishdan daromad	Jinlash jarayonidagi qo'shimcha mahsulot	Chigit xaridorga yetkazilganda yoki nazorat o'tganda tan olinadi.
4	Kalava (ip) sotishdan daromad	Ip yigirish korxonasi	Mahsulot xaridorga topshirilib, bajarish majburiyati bajarilganda tan olinadi.
5	Mato sotishdan daromad	To'qimachilik korxonasi	Mato ustidan nazorat xaridorga o'tgan sanada tan olinadi.
6	Tayyor kiyim-kechak sotishdan daromad	Tikuv-trikotaj korxonasi	Xaridor mahsulotni qabul qilgan yoki yetkazib berish sharti bajarilganda tan olinadi.
7	Eksport daromadlari	Xorijiy xaridorlarga realizatsiya	Incoterms shartlariga muvofiq nazorat o'tgan vaqtda tan olinadi.
8	Qayta ishlash (processing) xizmatlari daromadi	Buyurtmachi xomashyosini qayta ishlash	Xizmat bajarilgan darajasiga qarab yoki xizmat to'liq yakunlanganda tan olinadi.
9	Logistika va saqlash xizmatlari daromadi	Ombor va transport xizmatlari	Xizmat ko'rsatilgan davr mobaynida bosqichma-bosqich tan olinadi.
10	Qishloq xo'jaligi xizmatlari daromadi	Ekish, yig'im-terim, agroxizmatlar	Xizmat bajarilgan sari tan olinadi.
11	Valyuta kursi farqidan daromad	Eksport operatsiyalari	IAS 21 bo'yicha tan olinadi.
12	Boshqa operatsion daromadlar	Chiqindilar, ikkilamchi mahsulotlar, ijaraga berish	Tegishli standartlarga muvofiq, nazorat yoki xizmat bajarilishi asosida tan olinadi.

Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatida daromadlar yagona manbadan emas, balki ishlab chiqarish zanjirining turli bosqichlari va faoliyat yo'nalishlari bo'yicha shakllanadi. Xom paxta yetishtirish, uni qayta ishlash, tayyor mahsulot ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish hamda moliyaviy operatsiyalar natijasida olingan daromadlarning iqtisodiy mazmuni va ularni tan olish mezonlari bir-biridan farq qiladi. Shu sababli daromadlarni guruhlar bo'yicha

tasniflash buxgalteriya hisobini samarali tashkil etish, daromadlarni MHXS (IFRS) 15 talablari asosida to'g'ri e'tirof etish, ularni mahsulot turlari, qiymat yaratish bosqichlari va faoliyat yo'nalishlari kesimida tahlil qilish hamda boshqaruv qarorlarini sifatli axborot bilan ta'minlash imkonini beradi. Klasterlarning integratsiyalashgan faoliyatini inobatga olgan holda daromadlarni quyidagi guruhlariga ajratish maqsadga muvofiq hisoblanadi.



1-rasm. Paxta-to'qimachilik klasterlarida daromadlarni guruhlar bo'yicha tasniflash.

Mazkur tasnif daromadlarni ularning iqtisodiy mazmuni, shakllanish manbai va klasterning qiymat yaratish zanjiridagi o'rniga ko'ra tizimlashtirish imkonini beradi hamda daromadlar hisobini segmentlar, mahsulot turlari va faoliyat yo'nalishlari kesimida tashkil etish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Paxta-to'qimachilik klasterlarida daromadlarni guruhlar bo'yicha tasniflash ularning iqtisodiy mazmunini to'liq ochib berish, daromadlarni shakllanish manbalari va qiymat yaratish zanjiri bosqichlari kesimida hisobga olish imkonini beradi. Bunday yondashuv daromadlarni MHXS (IFRS) 15 talablari asosida to'g'ri e'tirof etish, moliyaviy hisobotlarning ishonchligini oshirish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan analitik axborotni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, daromadlarni asosiy ishlab chiqarish, qo'shimcha ishlab chiqarish, xizmatlar, moliyaviy va boshqa operatsion faoliyat bo'yicha alohida guruhlarda yuritish klasterlarning moliyaviy natijalarini aniq baholash, rentabellikni tahlil qilish va ichki nazorat tizimini takomillashtirishga imkon yaratadi.

Biz tadqiqotimiz davomida quyidagi taklif va tavsiyalarni ishlab chiqdik:

Paxta-to'qimachilik klasterlari uchun daromadlarning yagona tasniflagichini joriy etish taklif etiladi. Unda daromadlar asosiy ishlab chiqarish, qo'shimcha ishlab chiqarish, xizmatlar, moliyaviy va boshqa operatsion faoliyat bo'yicha alohida guruhlariga ajratilib, har bir guruh uchun analitik hisob kodlari belgilanishi maqsadga muvofiq.

Daromadlar hisobini MHXS (IFRS) 15 talablari asosida qiymat yaratish zanjiri bosqichlari kesimida tashkil etish tavsiya etiladi. Bunda xom paxta, paxta tolasi, kalava, mato va tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlari realizatsiyasidan olingan daromadlar alohida analitik schyotlarda aks ettirilishi hamda har bir bosqich bo'yicha rentabellikni aniqlash imkoniyati yaratilishi lozim.

Klasterlarda daromadlar bo'yicha segmentar boshqaruv hisobotini joriy etish maqsadga muvofiq. Ushbu hisobotda daromadlar mahsulot turlari, tarkibiy korxonalar, bozorlar (ichki va eksport) hamda faoliyat yo'nalishlari kesimida shakllantirilib, rahbariyatni strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tezkor va ishonchli analitik axborot bilan ta'minlashi zarur.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. IFRS Foundation. (2024). *IFRS 15 Revenue from Contracts with Customers*. London: IFRS Foundation.
2. Kieso, D. E., Weygandt, J. J., & Warfield, T. D. (2022). *Intermediate Accounting* (18th ed.). Hoboken, NJ: John Wiley & Sons.
3. Kaplan, R. S., & Atkinson, A. A. (2015). *Advanced Management Accounting* (3rd ed.). Pearson Education.
4. Porter, M. E. (1985). *Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance*. New York: Free Press.
5. Drury, C. (2018). *Management and Cost Accounting* (10th ed.). Cengage Learning.
6. Jaloliddin o'g'li, A. S. (2023). Qishloq xo'jalik korxonalarida daromadlar hisobini takomillashtirish. *The Journal of Economics, Finance and Innovation*, 816-823.
7. Zarifovna, Y. F. (2026). Korxonalar moliyaviy natijalarini yaxshilashda zamonaviy buxgalteriya hisobi, barqarorlik va texnologik yondashuvlar. *Modern education and development*, 52(5), 217-223